MAXSUS TERMINOLOGIYANI TEMATIK KORPUSDAN FOYDALANISH ORQALI O'RGATISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI

Sarsenbayev Hamudulla
Toshkent Kimyo texnologiya Instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20748114

Key word: *maxsus terminologiya, tematik, tilshunoslik, leksikografiya,*

Maxsus terminologiyaning o'rganilishi va uning zamonaviy ta'limdagi o'rni juda muhim masalalardir. Maxsus terminologiya — muayyan soha yoki fan doirasida ishlatiladigan terminlar to'plami. Ular o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir sohaning o'ziga xos bilim va tushunchalarini ifodalaydi. Maxsus terminalogiyani o'rgatishning ahamiyati shundaki, soha ichida aniq tushunchalarni shakllantirishda yordam beradi. Natijada terminlar yordamida murakkab g'oyalar va konseptlarni aniq va ravshan ifodalash mumkin. Shuning bilan bir qatorda maxsus terminologiya soha mutaxassislari o'rtasida muloqotni osonlashtiradi va ular bir-birining tushunchalarini tez va to'g'ri tushunishlarini ta'minlaydi. Aksariyat zamonaviy ta'lim dasturlarida maxsus terminologiyani o'rganish va o'rgatish zarurati mavjud. Bu, ayniqsa, muhandislik, tibbiyot, iqtisodiyot, va boshqa texnik fanlarda juda muhim. Tematik korpuslarning maxsus terminologiyani o'rgatishdagi roli juda katta. Korpuslar o'qituvchilarga va talabalar uchun terminlarni o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Dastavval korpus va uning mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, jahon va o'rta osiyo olimlarining olib borgan tadqiqotlarini o'rganib chiqamiz. Korpusda tilni keng, to'liq, obyektiv ko'rsatish imkoniyati bor, shu tufayli u har qanday axborot bankidan afzalligi bilan ajralib turadi. Korpusning qaysi sohadagi amaliy ahamiyati to'g'risida to'xtalishimizdan qat'iy nazar, eng avvalo, uning reprezentativlik xususiyati asosiy omil bo'lib qolaveradi. Korpus turli xildagi tadqiqot uchun asos, manba, vosita vazifasini o'tay olganligi uchun ham dunyoda juda ko'p sohalar korpusga tayanib ish ko'radi. Yuqorida aytilganidek, korpus maxsus qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilgan, lingvistik tadqiqotlar uchun asos bo'la oladigan shunday matnlar massividan iboratki, ular oddiy elektron kutubxonadan farq qiladi. Ta'kidlash joizki, til korpuslari, eng avvalo, tilshunos uchun kerak. Zero, korpussiz bugungi kunning nazariy hamda amaliy filologiyasini tasavvur etish qiyin. Tilshunoslikka oid tadqiqotlar hamisha dalillar asosida ish ko'rishni, muayyan tadqiq mavzusi doirasida faktlar yig'ishni, to'plangan materiallarni sistemaga solishni taqozo etadi. Bunday katta hajmli ishni bajarishda korpus tilshunosning vaqtini, mehnatini tejaydigan bebaho ish qurolidir. Aslida, korpus texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo'libgina qolmay, ma'lum til zamonaviy shaklining axborot tizimi, kutilmagan savollarga ham javob bera oladigan, tilshunoslik oldiga avval qo'yilmagan dolzarb muammoni qo'ya oladigan tizimdir [1]. Korpus asosida ish ko'radigan eng birinchi soha – leksikografiya, u katta hajmli lug'atlarni tuzish uchun asosiy, betakror manba hisoblanadi. Yaratilayotgan barcha zamonaviy, so'nggi lug'atlar korpusga asoslangan, ular misollarining haqiqiyligi, ishonarliligi bilan baholanadi. Chunki korpusda til jamiyatda qanday

1

yashasa, shunday aks etadi, natijada, lug'atdagi misol ishonarli, asosli bo'ladi [2]. Vaqt o'tishi bilan korpuslar turli lingvistik yo'nalishlar uchun ahamiyatli bo'lishi bilan kuchli informatsion resursga aylandi. Chunki korpus leksikografiya sohasi uchun boy manba hisoblanib, ular asosida kompyuter yordamida lug'atlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi, qayta ishlanadi. Shu yo'l bilan ishning boshlanishidan tugash jarayoni (nashr)gacha tilni aks ettirib turadi, eskirishga ulgurmaydi. Ikkinchidan, korpusning leksikologiya sohasidagi ahamiyati shundan iboratki, so'zning qo'llanish davri, chastotasini aniqlashda hech qanday vosita unga tenglasha olmaydi. Korpus asosida ma'lum so'zning chastotasini aniqlash uchun berilgan qidiruv natijasida diagramma, grafiklar yordamida so'zning tartib raqami uning chastotasiga teskari proporsional bo'ladi, chunki ikkinchi tartib raqamida joylashgan so'z birinchi raqamli so'zga nisbatan kamroq, to'rtinchisi uchinchisiga nisbatan kamroq ishlatilishi aniq[3]. Birorta chastotali lug'at korpuschalik aniq ma'lumot berolmaydi, chunki til doim o'zgarishda, so'zning chastotasi ham nisbiydir [4]. Bundan tashqari, korpus tilning lug'at boyligida bo'layotgan o'zgarishlar (neologizm, istorizm, arxaizm hodisalari)ni kuzatishning eng qulay vositasidir. So'zlarning leksik-semantik birikish imkoniyati tahlilida korpus metodini qo'llash yangi avlod lug'at, grammatikalari, xususan, turg'un birikmalar lug'atini yaratish imkonini berdi. Korpus yaratilishi, taraqqiy etishi, til korpuslari asri kirib kelishi bilan lug'atshunoslarda so'zlarning qo'llanilish holatlariga doir juda katta matnlar to'plami bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ldi[5] . Til korpusi hajm jihatdan imkon qadar katta bo'lishi, 100 millionlab so'z qo'llanish holatini qamrab olishi lozim. Misol tariqasida rus tili milliy korpusi tarkibiga kirgan "Dostoyevskiy asarlari korpusi" uchun yig'ilgan yozuvchining barcha asarlari matni 2 million so'zdan iborat ekanligini keltirish o'rinli. Shu sababli korpusni til modelining kichraytirilgan ko'rinishi deb atash mumkin [6]. Endi til korpusi yordamida yechimini topadigan muammolardan biri – uning til taraqqiyotini kuzatish, o'rganishdagi ahamiyatiga, hatto mikrotarixiy tilshunoslik muammosi – qisqa davr ichida (aytaylik, oxirgi o'n yillikda) tilda bo'ladigan o'zgarishlarni tadqiq etishdagi qulayligiga to'xtalamiz. Kuzatishimizcha, ilmiy sohada mazkur yo'nalishda hozirgacha deyarli biror tadqiqot amalga oshirilmagan. Bunday qisqa davrdagi o'zgarishni tadqiq etishga rus akademigi V.V.Vinogradov juda qiziqqan. Shu kabi bir-ikki izlanishni hisobga olmasak, tilshunoslikda qisqa davrda bo'ladigan o'zgarishlar maxsus tadqiq manbai bo'lmagan. Ta'kidlash zarurki, bugungi kunga kelib, qisqa davrdagi o'zgarishni maxsus tadqiq etishga hojat ham qolmadi, sababki, bir qadar mukammal yaratilgan korpuslar har qanday masalaga birpasda oydinlik kiritadi [7]. Ma'lumki, korpus yaratilishi aniq maqsadga muvofiq bo'lib, aynan shu jihati tufayli uning har xil turlari yuzaga kelgan. U maqsadi, tili, janri, adabiy til shakli, korpusdagi tillar soni, hajmi va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir biridan farqlanadi. **Korpus** — bu ma'lum bir til yoki sohada yozilgan matnlarning yig'indisi. Ular bir necha turdagi matnlarni o'z ichiga olishi mumkin: ilmiy maqolalar, kitoblar, texnik hujjatlar va boshqa manbalar.

Mavjud korpus tasniflari turli xil parametrlarni hisobga oladi: korpusni yaratish maqsadi, korpus tili, korpusning janrlar bo'yicha qamrovi, adabiy til shakli, korpusdagi tillar soni, hajmi va boshqalar. V.P.Zaxarov "korpuslarni sinflarga bo'lishning ikkita asosiy usuli"ni ta'kidlaydi:[8] 1)

butun tilga (asosan, ma’lum bir davr tiliga) tegishli korpuslarning muayyan sub(ichki)korpus (janr, uslub, ma’lum bir yosh yoki ijtimoiy guruhning tili, yozuvchi yoki olimning tili va boshq)ga nisbat berilishi; 2) korpuslarni lingvistik izoh (belgilanma) turiga qarab ajratish. Izohlashning morfologik, sintaktik, semantik, prosodik, uslubiy kabi ko’p turlari mavjudligiga qaramay, mavjud korpuslarning aksariyati morfologik yoki sintaktik (treebanks) turdagi izohlarga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, sintaktik izohlangan korpus leksik birliklarning morfologik xususiyatlarini ham o’z ichiga oladi. Charlz Fillmor matn korpusining mashhurligi haqida shunday izoh berdi: “Men ikkita izoh bera olaman. Birinchisi, korpuslar qanchalik katta bo‘lmasin, leksika va grammatikaning barcha sohalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan matnlar korpusi bo‘lishi mumkin deb o‘ylamayman. Ikkinchi izoh shundaki, men o‘qigan har bir korpus, qanchalik kichik bo‘lmasin, menga shunday faktlarni ko‘rsatdiki, men hech qachon boshqa yo‘l bilan bunday ma’lumotlarni topa olmas edim”[9]. Ch.Fillmor ta’kidlashicha, til korpuslari ko‘lami va qamrovining chegarasi bo‘lmaydi va shunday chegarasiz imkoniyatlari bilan korpusga boshqa manba, tizim, dasturiy ta’minotlar raqobatlasha olmaydi. Shu bois korpusga asoslangan lug‘atlarni yaratish natijasida lug‘atlarda tilning yashovchanligi va real so‘zlikni aks ettiradi.

Korpus tilshunoslarining to’rt guruhi mavjud: 1. Korpus yaratuvchilari (corpus compilers. 2. Korpuslarni tahlil qilish uchun dasturlarni ishlab chiquvchilar (corpus software developers). 3. Deskriptiv lingvistlar – tilning lug’ati va grammatikasini yetarli darajada tavsiflash uchun mavjud korpuslardan foydalanadilar Asosan, ehtimollik yondashuvi qo’llaniladi. 4. Korpuslardan yangi progressiv ishlanmalarda foydalanish bilan shug’ullanadiganlar – tillarni o’rganish va o’qitish, tabiiy tilni mashinada qayta ishlash (masalan, nutq sintezatorini yaratish, nutqni aniqlash va avtomatik tarjima qilish) da korpusdan unumli foydalanishadi[10].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida lingvistik tadqiqotlar uchun, shuningdek, amaliy muammolarni hal qilish uchun yaratilgan korpuslar paydo bo’ldi. Shunday dolzarb masalalardan biri til birliklarining chastotasini hisoblash edi. XXI asrga kelib dunyo tilshunosligida, korpus lingvistikasini ilmiy amaliy jihatdan o’rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlari kengaydi. Rossiyada KorpLing rivojlanishi 2000-2004-yilda yaratilib, 2004- yilda foydalanuvchilarga taqdim etilgan rus tilining milliy korpusi (Национального корпуса русского языка / НКРЯ) bilan bog’liq. O’zbekistonda KorpLing shakllanishi 2018-yillarda nazariy tadqiqotlar bilan boshlanib, 2021-yilda O’zbek tilining ta’limiy korpusi yaratilishi bilan rivojlandi. Rus korpusshunosligida V.P.Zaxarov, A.K.Kutuzov, E.V.Nedoshivina, V.Rikov, V.Plungyan, M.Kopotev korpus, uning turlari, xususiyatlari, korpusning ijtimoiy ahamiyati va korpusni yaratish tamoyillarini tadqiq etgan. Mualliflik korpuslari bo’yicha maxsus tadqiqotlar O.Kukushkina, A.Polikarpov va E.Surovseva asarlarida mavjud[11]. O’zbek korpusshunosligida yirik matnlar ustida ishlash, maxsus yaratilgan elektron matnlar majmuining ko’plab tadqiqotlar va ta’limiy jarayonda asosiy manba bo’lishi borasidagi fikrlar dastlab A.Po’latov[12] , A.Rahimovlar[13] tomonidan ilgari surilgan bo’lsa, keyinchalik B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva, M.Abjalova, A.Eshmo’minov, D.Axmedova, O’.Xoliyorov, N.Abdurahmonova, G.Toirova, D.O’rinboyeva, B.Elov, A.Raxmanova tomonidan til korpuslari

hamda uning turlari tadqiq qilingan. Natijada mualliflik korpuslarini tuzishning lingvistik asoslari[14] , tabiiy tilni qayta ishlash[15] , sinonim so'zlarni semantik teglash[16], atov birliklarini leksik-semantik teglash[17] , o'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish[18], elektron korpuslar modellari, korpus tuzishning kompyuter usullari tadqiq etildi. Quvonarli jihati, nazariy tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy jamoasi tomonidan "O'zbek tilining ta'limiy korpusi" yaratildi va o'zbek tili Milliy korpusiga tamal toshi qo'yildi. Bugungi kunda tarkibidagi matnlar va leksikografik bazasi boyitib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baker, M. (1995). Corpora In Translation Studies. *Target International Journal Of Translation Studies*, *7*(2), 223–243. Https://Doi.Org/10.1075/Target.7.2.03bak
2. Biber, D. (1993). Representativeness In Corpus Design. *Literary And Linguistic Computing*, *8–4*, 243–257. Https://Www.Lancaster.Ac.Uk/Fass/Projects/Corpus/ZJU/Xcbls/Chapters/B01.Pdf
3. Boulton, A., & Cobb, T. (2017). Corpus Use In Language Learning: A Meta-Analysis. *Language Learning*, *67*(2), 348–393. Https://Doi.Org/10.1111/Lang.12224
4. CALICO Journal Articles On Corpus-Based Language Teaching And Learning. (2020). *Corpus-Aided Platform For Language Teachers (CAP)*.
5. Chen, L., Chang, K., & Yang, S. (2022). Integrating Corpus-Based And NLP Approach To Extract Terminology And Domain-Oriented Information: An Example Of US Military Corpus. *Acta Scientiarum. Technology/Acta Scientiarum. Technology*, *44*, E60486. Https://Doi.Org/10.4025/Actascitechnol.V44i1.60486
6. *Corpus Selection - The Routledge Handbook Of Corpus Approaches To Discourse Analysis*. Ebrary. Https://Ebrary.Net/311580/Language_Literature/Corpus_Selection
7. Kutalia, E., & Kutalia, M. (2023). Corpus-Based Approaches In Teaching ESP Terminologies (Medical Terminology). *Deleted Journal*, *10*(1), 256–267. Https://Doi.Org/10.62343/Cjss.2017.169
8. L'Homme, M. (2013). Review Of Faber (2012): A Cognitive Linguistics View Of Terminology And Specialized Language. *Terminology International Journal Of Theoretical And Applied Issues In Specialized Communication*, *19*(2), 282–287. Https://Doi.Org/10.1075/Term.19.2.07lho
9. Leech, U., Biber, U., Otlogetswe, U., Berber-Sardinha, U., Sinclair, U., Atkins, U., Clear, U., Ostler, U., Corpora Mailing List, & Hunston, U. (N.D.). Unit 2 Representativeness, Balance And Sampling. In *Representativeness In Corpus Design*. Https://Www.Lancaster.Ac.Uk/Fass/Projects/Corpus/ZJU/Xcbls/Chapters/A02.Pdf
10. *Lexical Relations In Semantics | Various Types - Literary English*. Literary English. (2024). Https://Literaryenglish.Com/Lexical-Relations-In-Semantics-Various-Types/